



## “HAFT GULSHAN”NING UCHINCHI GULSHANI MATNIY TADQIQI

**Muallif:** A‘zamova Shodiya Burxonovna<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** ToshDO‘TAU tayanch doktoranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20225751>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan atoqli shoir Nodirning “Haft gulshan” dostoni matniy tadqiqiga bag‘ishlanadi. Maqolada asarning “Uchinchi gulshan” matnining qisqacha bayoni keltiriladi. Shu qism asosida asarning ikki nusxasi qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshiriladi. Tafovutlar tayanch nusxa deb tanlab olingan qo‘lyozmaga nisbatan aniqlanadi, tasniflanadi va jadval asosida statistik ma‘lumotlar beriladi. Farqlarning barcha turi misollar orqali tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Taxallus, doston, gulshan, nusxa, tayanch manba, tafovut, farq, tasnif, jadval.

Qo‘qon adabiy muhitining Amiriy, Muqimiy, Nodira, Uvaysiy singari zabardast vakillaridan yana biri Nodirdir. U Uzlat(iy), Mahjur(iy), Sharif(iy), Nodir kabi taxalluslarda qalam tebratgan. Asl ismi Muhammad Sharif bo‘lib, Koson qishlog‘ida tavallud topgan. Lirikasida Uzlat taxallusini ko‘proq qo‘llagan. Hayotining ko‘p qismini qiyinchilikda, muhtojlikda o‘tkazgan. Olim, shoir, xattot sifatida faoliyat yuritgan. Amir Umarxon va uning oilasi tarafidan ijodkor qatlam faol tarzda qo‘llab-quvvatlangan. Xususan, shoira Nodira ham atrof hududlardan saroyga ilm ahlini jamlagan, ularning faoliyatlari uchun keng imkoniyatlar yaratgan. Shu ahli ilm davrasida Nodir ham saroyga keladi, samarali ijod qiladi. Nodiraga chuqur ehtiromi yuzasidan ham o‘zining “Haft gulshan” asarini Nodiraga bag‘ishlaydi va Nodir taxallusida yozadi.

Asar 1824-1825-yillarda yozib tugatilgan bo‘lib, 7 mustaqil hikoyatdan jamlangan. Ular “Birinchi gulshan”, “Ikkinchi gulshan” sifatida nomlangan. Hikoyatlarda sadoqat, adolat, sevgi, haqgo‘ylik, vafo, qahramonlik, jasorat kabi insoniy fazilatlar, asar qahramonlarining turli sarguzashtlari misolida tarannum etiladi, pand-nasihatga yo‘g‘rilgan baytlar beriladi.

Voqealar gulshanlarning har birida har xil bo‘lib, yer yuzining turli yerlarida (Rum, Farangiston, Peshohur, Bangola, Lohur, Bag‘dod, Sarondib, Oromobod) voqelanadi. Tabiiyki, har qismda turli qahramonlarni (qiz-yigit, ota-o‘g‘il, dehqon-sulton, shoh-muboriz, ahli donish Sa‘diy, lo‘lilar, Javhar, zangi, Sham‘un, Saodat, usta va oilasi) uchratamiz.

Birgina “Uchinchi gulshan”ni olaylik. Undagi hikoyat sevgi, ilm va zulm mavzulariga bag‘ishlangan voqealarga asoslanadi.

Peshohur shahrining podshohi qahrli, jafokor va zolim kishi bo‘ladi. Shunga qaramay, uning “Guli guldastai bog‘i Iram qiz” ta‘rifli bir qizi bo‘ladi. U o‘ziga ko‘shk bino qildirgan bo‘lib, ko‘shkda o‘zidek fahm-u farosat, aql-u zako ichra tengsiz, musiqada mohir qizlar bilan tun-u kun she‘riy bazmlar tuzar edilar. Qiz juda chiroyli

edi, uning ta'rifini eshitgan yusufsifat shahzodalar unga xaridor bo'lib, elchi yuborar, shoh qohir esa, bundan g'azabga tushib, ko'pini o'ldirar edi:

*Chiqibon shoh qohir boshig'a dud,  
Bo'lur erdi bu ishdin barcha mardud.  
Bu sirni aylasa har kim anga fosh,  
Kesar erdi g'azab tig'i bila bosh* [1: 28<sup>b</sup>].

Shoh o'zi qabohatga botgan bo'lsa ham, uning atrofidagi qahramonlar barchasi donishmand, aqlli insonlar edi. Ularning biri – vaziri. Vazirning “xurshidi jahon” kabi bir o'g'li bo'lib, u Haq ishq to'la qalbgaga sohib, ko'rkam yigit bo'lib ulg'aygandi. Kunlarning birida xudo sun'in tamosho qilish bahonasida, bog' sayri vaqtida, qizning ko'shkiga ko'zi tushdi. Undan xabarsiz malika qizlar bilan o'ynashib, bir eshikdan chiqib keladi. Yigit qizni ko'rib, muhabbat otashidan hushini yo'qotadi. Qiz ham yigitga oshiq bo'ladi. Buni eshitgan vazir o'g'lining kelajagini xavfda bilib, uni zanjirband qilib, uyga qamab qo'yadi. Qo'li arqon, oyog'i zanjirga tobe' yigitning ko'ngli, allaqachon, muhabbat rishtasi bilan kishanlangan, edi:

*Takallum aylar erdi oshiqona,  
Xayol(i) suratig'a g'oyibona.  
Kuyubon jismi dardi dog'i yanglig',  
Sorig' yuzi xazon yafrog'i yanglig'* [1: 29<sup>b</sup>].

Bir kun yigitning ishqida kuygan qiz, faryod-u navo asnosida forsiyda she'r o'qiydi:

*Chahor chiz g'am az dil burad bavaqt(i) bahor,  
Sharob(-u), shohid-u, soqiy, tafarruji gulzor* [1: 29<sup>b</sup>].

(Tarjimasi: *Bahor vaqtida to'rt narsa dildan g'amni eltadi: Sharob, shohid (mahbub), soqiy va gulzorda ko'ngil ochish*)

Taassufki, shikorga ketayotgan qohir podshoh qizining bu nolasini eshitib qoladi. Uning oldiga borib, hisob so'raydi. Qiz birov bilan biror og'iz so'zlashmagani, hech qanday gunoh qilmaganini aytib, har qancha inkor qilsa ham, shohning ko'zi qonga to'lgan, hovuri faqat qilich bilan bostirilgudek edi. Shunda qiz baytning oxirgi misrasini o'zgartirib o'qiydi, mushkulotiga ilm bilan chora qilmoqchi bo'ladi:

*Chahor chiz g'am az dil burad ba vaqti bahor,  
Namoz-u ro'za-u tasbih, chorum istig'for* [1: 30<sup>a</sup>].

(Tarjimasi: *Bahor vaqtida to'rt narsa odamning yuragidan g'amni yo'qotadi: Namoz, ro'za, tasbih, istig'for*)

Ammo bu paytda shohning aqli jilovdan chiqqan edi:

*Qaro aylab jam'i ich-u toshin,  
Qilich birla qizini kesdi boshin* [1: 30<sup>a</sup>].

Xazon vaqtida so'ngan yaproq kabi qiz yerga yiqiladi va devorga o'z qoni bilan:

*Jonon(i) maro ba man biyorid,  
In murda tanam bado' siporid.  
To ...” – deb yozadi* [1: 30<sup>b</sup>].

Jumla so'ngiga yetmay qoladi (o'lim tasvirida “kesdi boshin” jumlasini bor edi, bu tarzda o'ldirilgan qizning bayt yoza olishi o'ta mubolag'alidir). Shoh ikki ming fuzaloni yig'ib, ularni mamlakatda aziz qilganining minnati bilan, qizining muddaosi nima ekanini, baytning davomi qanday tugashini topishlarini buyuradi. Olimlar 3 kun muhlat so'raydilar. Shoh agar olimlar aytilgan muddatgacha yechim topa olishmasa, ularni qatl etishini, jumboqni yechganni esa xaloyiq ichra mumtoz etajagini aytadi. Shartni noiloj qabul qilgan olimlar hech chora topa olmay, oxiri xudoning zikri bilan

mashg'ul bo'ladilar, unga munojot qiladilar. Xudo ohlarini eshitadi. Bu mushkulot yechimiga Hazrat Shayx Sa'diy She'roziyni sababchi qiladi:

*Mashoyix qidvasi Sa'diy Sheroz,  
Edi as'hob(-u), kashf(-u), sohib(i) roz.  
Tariqat yo'li ichra erdi solik,  
Haqiqat kishvarig'a erdi molik [1: 31<sup>b</sup>].*

Peshohur kishvarida qatl(i)om bo'lishi mumkinligi, barcha bo'lib o'tgan voqealar Xudo amri bilan shayxning botinida ayon bo'ladi. Fazoil ahlidan bir necha ma'sumning taqdiriga befarq qarab tura olmagan shayx Sheroz bilan orasi bir oylik masofa bo'lgan Peshohurga, Xudo hukmi bilan bir tunda yetib boradi. Shayx Sa'diy Sheroziy umidi so'ngan, rangi za'faron ahli donishga shunday deydi:

*Dedi shayx: ey, guruh(i) bejinoyat,  
Boribon shahg'a ayting bu hikoyat.  
Inoyat aylasa, Tangri karamdin,  
Olurman ul guhar bahr(i) adamdin [1: 32<sup>b</sup>].*

Shayx so'zining uddasidan chiqadi. Dastlab, ilmi benazir shayx shoh qizi yozmoqchi bo'lgan baytning davomini ma'lum qiladi. Bayt quyidagichadir:

*Jonon(i) maro baman biyorid,  
In murda tanam badu siporid.  
To bo'sa zanad barin labonam, (asar nashrida "mabonam" deb berilgan [7: 66]).  
Gar zinda shavam ajab madorid [1: 33<sup>a</sup>].*

(Tarjimasi: Jononimni manga keltiring, O'luk tanamni unga topshiring. To maning lablarimdan o'psa, Agar tirilsam, ajablanmang.)

Shayx shundan so'ng, shahar-u qishloq bo'ylab, qizning oshig'ini qidirish, uni saroyga olib kelish kerakligini aytadi. Yigitni topishga kirishishadi:

*Der erdi: shah qizini oshiqi kim?  
Muhabbat yo'li ichra sodiqi kim [1: 33<sup>a</sup>]?*

Yigit ko'chasida shovqin solayotgan jarchining aytganlarini eshitib, arqon-u zanjirni uzib, qochib chiqadi va o'zini tanitadi:

*Dedi: ul shah qizini oshiqi – man,  
Muhabbat yo'li ichra sodiqi – man [1: 33<sup>a</sup>].*

Shayx yigitni mahbubasining oldiga olib kiradi va tangrining marhamatidan, muhabbat quvvatidan, qiz bir aksa urib, o'ziga keladi:

*Ko'torib boshini chun sarv(i) ozod,  
Qo'pub o'tturdi ul dam xurram(-u) shod [1: 33<sup>b</sup>].*

Xatosini tushunib yetgan shoh shodiyona nog'oralari qoqishga farmon beradi. Qiz va yigitning to'yini bekam-u ko'st o'tkazadi. Shayx esa ularning nikohini o'qiydi. Avvalda xristian bo'lgan butun Peshohur xalqi (asarda olimlar qizning nima deb yozganini topish uchun savomiga – xristianlar ibodatxonasiga to'planganlari tasvirlari bor) va podshoh unga dasti irodat beradilar. Shundan so'ng shoh ham adolat bayrog'ini qo'ldan bermadi.

Adabiyotshunos olim Aziz Qayumov asarning ikkinchi va uchinchi gulshanlari xususida gapirganda, ularda qahramonlarning birortasiga ham ism qo'yilmaganini tanqid qilib, bu mavhumlikka sabab bo'lganini aytgan edi [5: 185]. "Uchinchi gulshan"ga esa, unda ham Shayx Sa'diy obrazidan boshqa biror qahramonga nom berilmagan bo'lsa-da, "Nodirning "Haft gulshan" kitobidagi eng muvaffaqiyatli doston" sifatida baho beradi va shunday deydi: "Uchinchi gulshan"da Nodir kuchli va

to'laqonli xarakterlar yaratdi. Ularni faqat so'z, ta'rif yoki tanqid orqali emas, voqealar, harakatlar, to'qnashuvlar vositasida ochib berdi" [5: 194].

Shoir ushbu gulshan orqali g'azab xatoga undashini, zolimlikning so'ngi faqat pushaymon ekanini, dunyoviy va diniy ilmlar, sevgi va sadoqat razolatli dunyoni qutqarishi mumkin ekanini yorqin tasvirlar bilan bergan.

Yuqorida asar adabiy voqea sifatida sharhlandi. Endi uning matniy jihatlariga e'tibor qaratsak. Ushbu "Uchinchi gulshan"ning mavjud asar qo'lyozmalaridagi farqli ifodalari, umuman, "Haft gulshan" dostoni matni xususida dastlabki tasavurni bera oladi, bizningcha.

"Haft gulshan"ning bugungi kunda 6 qo'lyozma nusxasi bizga ma'lum. Ular O'zFA ShI qo'lyozmalar xazinasida 1801, 11873, 10114-II inventar raqami bilan, Qo'qon Adabiyot muzeyi fondida 4112/15, 4155/235 inventar raqami bilan, Turkiyaning Istanbul shahri Yapı Kredi tadqiqot kutubxonasi Nodir va qo'lyozma asarlar bo'limida № 045492 inventar, 0240 tartib raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma matlardir. Turkiya qo'lyozmasi "Gülşennâme" nomi bilan saqlanadi.

Asarning 1801 inventar raqamli tayanch nusxasi va 11873 saqlanish raqamli yordamchi nusxasi matnining qiyosiy-matniy tadqiqini asar uchinchi gulshani misolida tahlil qildik. Bunda nusxalar A (1801), B (11873) tarzida qisqa nomlandi va B shartli belgili qo'lyozma A nusxaga qiyosan o'rganildi.

Qo'lyozmadagi tafovutlarning paydo bo'lishiga kotibning xat uslubi, matnga yondashuvi, ko'chirishdan maqsadi, davr til xususiyatlari, qolaversa, turli ko'rinishdagi tahrir masalalari sabab bo'ladi.

"Haft gulshan"ning uchinchi gulshani yuzasidan, asarning 11873 saqlanish raqamli nusxasi matnida [2: 19<sup>b</sup>-26<sup>a</sup>] kuzatilgan farqlar statistikasi quyidagi jadvalda ko'rsatildi:

B nusxa yuzasidan farqlar											
Tafovut turlari	Imloviy xatolar	Birliklarning o'rnini almashtirib qo'llash	Boshqa lug'aviy birlik (so'z), jumla qo'llash	Boshqa kelishikda qo'llash	Boshqa egalik qo'shimchasida qo'llash	Fe' lga xos qo'shimchalar o'zgarishi	Fonetik hodisa natijasida qisman o'zgarish	Usluban farqlanish	Tushirib qoldirishlar	Orttirish	Jami
Asar tuzilishiga jiddiy ta'sir yetkazadigan katta hajmli farqlar	-	-							(26a) Duo qism – 5 bayt	-	5 b.
Kirish va nasriy tanishtiruv matnlari ifodalanishidagi farqlar	-	-							(24a) Voqealar bayoni tanitimi – 3 qator	-	3 q.
Bayt hajmli farqlar	-	-							3 bayt	-	3 b.

Misra hajmli farqlar	-	-							1 misra	-	1 m.
Jumlalar (so'z birikmalari, gap) bilan bog'liq farqlar	-	4	16						6	1	27
So'z bilan bog'liq farqlar	-	3	39			5	9		12	6	74
Harf va qo'shimchalalar yozilishidagi farqlar	14	1		59	1	6	3	11	7	21	123
Jami	14	8	55	59	1	6	8	20	37 o'rin	28	236

Ayrim tafovutlarni ko'rib o'tamiz:

A	B
<p>بو اشارات لطيفه و عبارات ظريفه حضرت شيخ سعدى شيرازى نورالله مرقدہ نينک بيان حکایتی دور شيرين و کرامتی دور رنگين اموری دور مستحسن و خوارقی دور</p>	<p>بو فصیح عبارت و ملیح اشارت حضرت شيخ سعدى نورالله مرقدہ بیانی حکای (ی) تی دور و شیرین کرامتی دور و رنگین اموری دور مستحسن و خوارقی دور</p>
<p>Bu ishorat(i) latifa va iborat(i) zarifa hazrat(i) Shayx Sa'diy Sheroziy nurulloh(-u) marqadah(-u)ning bayon(i) hikoyatidur, shirin va karomatidur, rangin umuridur, mustahsan va xavoriqidur.</p>	<p>Bu fasih ibodat ↔ va malih ishorat hazrat(i) Shayx Sa'diy "–" nawvaralloh(-u) marqadahu bayoni hiko(y)atidur, +va+ shirin "–" karomatidur, rangin umuridur, mustahsan va xavoriqidur.</p>

Ushbu parcha hazrat Shayx Sa'diy Sheroziy ta'rifi davomidan aytilgan, mazmuni shunday: *Bu nozik ishora va chiroyli ibora hazrat Shayx Sa'diy Sheroziy (Alloh qabrlarini nurli qilsin)ning hikoyat bayoni, (hayotida kechgan) turli voqealar, karomati, ma'qul va go'zal amallari (ta'rifi)dir.* Parcha yuzasidan B nusxa matnida quyidagi farqlar kuzatildi:

1. A qo'lyozmadagi arab tilidagi "latifa" so'zi "malih", "zarifa" so'zi "fasih"ga o'zgartirilgan.

2. A nusxa matnidagi "ishorati latifa" va "iborati zarifa" – arabcha so'zlar asosidagi forsiy izofalar, B nusxada "fasih ibodat" va "malih ishorat" tarzida turkiy qurilmaga ega bo'lgan. Bunda so'zlarning mazmuni turkiylashtirilmagan bo'lsa ham qurilishi o'zbek adabiy tili qoidalariga muvofiq berilgan. Birinchi holatda hokim so'z birikmaning boshida berilgan bo'lsa, ikkinchi holatda tobe so'zdan keyin ifodalanib, so'z birikmasi ko'rinishiga kelgan.

3. Ushbu so'z birikmalari B nusxada o'zaro o'rin almashgan: "fasih ibodat ↔ va malih ishorat".

4. Shayx Sa'diy Sheroziy nisbasi (Sheroziy), "va" bog'lovchisi, "marqadah(u)ning" so'zidagi qaratqich kelishigi qo'shimchalari tushirib qoldirilgan.

5. Matnda “*marqadahu*” kalimasida *-u* diakritik belgisi, “*bayoni*” soʻzida *-i* III shaxs egalik qoʻshimchasi, “*va*” bogʻlovchisi orttirilgan.

6. “*hiko(y)atidur*” soʻzining oʻzida *y* harfining tushishi va *t* harfining bir nuqtasi kam ifodalanib, *n* boʻlib qolgani ortidan imlo xatosi yuzaga kelgan.

Uchinchi hikoyat matnida 16 jumla va 39 soʻz oʻrnida boshqa yangi lugʻaviy birliklar qoʻllangan (ular maʼnodosh boʻlishi ham mumkin). Masalan:

Ilkin → dasti irodat; edilar → boʻlubon; hama → necha;  
ishdin → eshikda; oʻzi → tushti; afozil → aholi;  
izom mashoyixi → nizom mashoyixi; qoqinglar emdi → ki qoqsun barcha.

Tafovutlarning koʻpchiligi asarning boshqa qoʻlyozmalarida ham takrorlangan. Bundan shunday xulosa qilish mumkin: asosiy nusxadan tashqari, boshqa bir qoʻlyozmada, kotib oʻzi koʻchirayotgan asarining tegishli matn qismlarini, kitob taqdim etilayotgan hukmdorga manzur kelishi uchun ongli ravishda oʻzgartirgan. Bu oʻzgarish esa keyingi koʻchirilgan qolgan nusxalarga asos boʻlgan. Aytish mumkinki, asarning har bir qoʻlyozma nusxasida, jumladan, ushbu 1801 va 11873 inventar raqamli qoʻlyozmalarida ham yozuv va uslub jihatidan betakrorlik koʻzga tashlanib, ular oʻziga xos xattotlik namunasi sifatida baholanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. نادر. كتاب هفت كلشن. Qoʻlyozma: OʻzFA ShI, Inv. № 1801. – S.114.
2. نادر. هفت كلشن. Qoʻlyozma: OʻzFA ShI, Inv. № 11873. XIX asr 1848-1849. – S.103.
3. Шамсиев П.; Иброҳимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. □ Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1953. – 12 б.
4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. □ Тошкент, 1961. – 250-301 б.
5. Қаюмов А. Асарлар. Қўқон адабий муҳити. 7 жилд, 1 китоб. □ Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 159-226 б.
6. Jalolovna, H. O. (2022). Improvement of the Science of rhyme in treatises of the timurid period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
7. Нодир. Ҳафт гулшан. Нашрга тайёрловчи: Ғофиржонова Т. □ Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА нашриёти, 1961. – Б.212.
8. Jalolovna, H. O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI'S" AL-MO'JAM FI MAOYIRI ASH'AR UL-AJAM" IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. Academia Repository, 4(11), 81-86.
9. Ғафуржонова Т. Нодир ва унинг “Ҳафт гулшан” достони. □ Тошкент: Фан, 1982. – Б.95.
10. Jalolovna, H. O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE'. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
11. Hamroyeva, O. J. (2022). CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN" HADOYIQ US-SIKHR". Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.